Fanlar akademiyasi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar va istiqbolli rejalarga bag’ishlangan matbuot anjumani o'tkazildi

AOKAda Fanlar akademiyami rahbariyati ishtirokida o’tkazilgan matbuot anjumanida amalga oshirilgan ishlar va istiqboldagi rejalar yuzasidan ma’lumot berildi.

2025-yil holati bo’yicha Fanlar akademiyasi tizimida 32 ta tashkilotda oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutlari tashkil etilgan. Bugungi kunda mazkur tashkilotlarda jami 916 nafar, jumladan 82 ta doktorant, 746 nafar tayanch doktorant, 88 nafar stajyor-tadqiqotchi va 130 nafar mustaqil izlanuvchilar tahsil olmoqda.

Shuningdek, 2024 yil yakunlari bo’yicha nashrlar soni 2127 ta, jumladan, 855 ta Scopus va Wos maqolalar, 208 ta monografiya, shundan 19 ta xorijiy, 84 ta patentlar, shundan 2 ta xorijiy hisoblanadi.

2025 yil holati bo’yicha Fanlar akademiyasi tizimida 32 ta tashkilotda oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutlari tashkil etilgan. Bugungi kunda mazkur tashkilotlarda jami 916 nafar, jumladan 82 ta doktorant, 746 nafar tayanch doktorant, 88 nafar stajyor-tadqiqotchi va 130 nafar mustaqil izlanuvchilar tahsil olmoqda.

Shuningdek, 2024 yil yakunlari bo’yicha nashrlar soni 2127 ta, jumladan, 855 ta Scopus va Wos maqolalar, 208 ta monografiya, shundan 19 ta xorijiy, 84 ta patentlar, shundan 2 ta xorijiy hisoblanadi.

Ilk bor yuqori energiyalardagi yadro va yadro to’qlanishlari natijasida yangi rezonans zarracha hosil bo’lishi dunyoda birinchi marta kashf etildi;
150 mingdan ortiq binolarning elektron texnik pasportlari shakllantirildi.

94 ta uzum navi va 32 ta bug’doyning navi uchun xalqaro standartlarga muvofiq genetik pasportlari yaratildi.

6 ta yangi biopreparat va 8 ta diagnostikumlarni ishlab chiqarish yo’lga qo’yildi.

Markaziy Osiyoda ilk bor to’r tizimli elektron xaritalash uslubi tadbiq etildi, Surxondaryo viloyatida 63 endemik tur tarqalishi ko’rsatildi.